

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUL

ANDIJON, 2024

XORAZMDA QIZIL GUL BAYRAMI VA TUT SAYLI BILAN BOG'LIQ URF-ODAT VA RASM-RUSUMLAR

Gapparova Baxtigul Razzaqovna

*Bog'ot tumani ixtisoslashtirilgan maktabi
tarix fani o'qituvchisi, O'zbekiston
gaffarovabaxtigul@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi davrlardan boshlab Xorazmda o'tkazilib kelinayotgan xalq sayillari, bayramlar, turli xil tadbirlar haqida ma'lumotlar yoritilgan. Shu bilan birga bu sayllarning qay maqsadda o'tkazilgani, shuningdek sayillar vaqtida qanday rasm-rusumlar bajarilgani, turli xil bayramlar va xalq sayillarining xalq hayotidagi ahamiyati haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: xalq sayillari, qizil gul bayrami, tut sayli, maydonlar, musobaqalar, urf-odatlar, marosimlar, an'analar, rasm-rusumlar.

Аннотация: В данной статье собраны сведения о народных гуляний, праздниках и различных мероприятиях, которые с древних времен проводились в Хорезме. При этом освещаются сведения о цели этих торжеств, а также о том, какие обряды совершались во время торжеств, о значении различных праздников и народных гуляний в жизни народа.

Ключевые слова: народные ярмарки, праздник красных цветов, шелковичная ярмарка, поля, состязания, обычаи, обряды, традиции, росписи.

Abstract: This article contains information about folk festivals, holidays and various events that have been held in Khorezm since ancient times. At the same time, information about the purpose of these celebrations is highlighted, as well as about what rituals were performed during the celebrations, about the significance of various holidays and folk festivals in the life of the people.

Key words: folk fairs, red flower festival, mulberry fair, fields, competitions, customs, rites, traditions, paintings.

Kirish. Bayramlar insoniyat hayotining tarbiyaviy xodisasi bo'libgina qolmay, balki ijtimoiy turmushning madaniyat, ma'naviyatning va undagi tarbiya tizimining eng muhim bo'laklaridan biridir. Bayramlarning asosiy ijtimoiy ahamiyati shu bilan belgilanadi, u insoniyat kurashini, mehnatini hamda boshqa ko'p sohalardagi yutuqlarini namoyon etadi.

Bayramlar qadimgi davrlardan boshlab inson hayotining eng muhim va tarkibiy qismiga aylangan. Bayramlar insoniyat hayotida shu qadar ahamiyatliki, ularni nishonlamaydigan xalq bo'lmasa kerak. Zero, har bir millat, elat va xalqning o'z taraqqiyot tarixi jarayonida shakllangan bayramlari mavjud.

Adabiyotlar tahlili. Xorazmda uch kun davomida nishonlanadigan bayramlardan biri "Qizil gul bayrami" hisoblanadi. "Qizil gul" bayrami yoshlik, sevgi, shodlik, bahor bayrami sifatida erta tongda yigit-qizlarning yangi ochilgan qizil gullardan guldasta tayyorlashi bilan boshlangan.

"Qizil gul bayrami"da yigitlar o'zlari sevgan qizlariga, unash tirilganlari esa, bo'lajak kelinchaklarga gul va olma otganlar[1]. Saylda karnay, surnay va doira chalingan, xonandalar qo'shiq aytib, raqqosalar raqs tushganlar. Chavandozlar poygasi, polvonlar kurashi, baxshilar aytishuvi, dorboz va masxarabozlarning tomoshalari avjiga chiqqan[2]. Qabriston yaqinida erkaklar yig'ilishgan va ularning biri guruch, biri yog', biri go'sht olib kelib, shu joyda palov taylorlashgan[3]. Sayl tamom bo'lishi bilan esa, qizlar yosh kelinlar boshchiligidida saf-saf bo'lib, yaqin joylardagi qabrlarni ziyorat qilish uchun jo'naganlar. Bayramning uchinchi kuni qizlar

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUL

ANDIJON, 2024

dugonalaridan birining hovlisida “Chiqon o’yini” – sarinjoq-arg’imchoq o’yini[4] uyuşdırılmış. Yosh yigitlar ham shu o’yin tashkil qilingan joyga kelib arg’imchoq uchayotgan qizlar bilan olma otishganlar[5].

“Arg’imchoqlarda uchish ham oddiy ko’ngil otishda iborat emas”, – deb ta’rif beradi G.P.Snesarev[6]. Boshqa bir qator xorijlik tadqiqotchilar ham, turli xalqlar orasida yaxshi ma’lum bo’lgan bu odat xosildorlik inonchlariga intiluvchi taqlidiy xarakterga ega bo’lgan sehrli usullardan biri deb ta’riflashgan[7].

Bayram boshlangan kundan to bayram oxirigacha bo’lgan davrda yigit va qizlar taxiya (do’ppi)siga qizil gul g’unchasidan qadab qo’yishi odat bo’lgani uchun ham bu bayram shu nom bilan atalgan.

Voha aholisi, asosan sug’orma dehqonchilik bilan shug’ullangani bois Xorazmda asosan, dehqonchilik bilan bog’liq marosimlar o’tkazilgan. Unga ko’ra, yer haydash va ekishda eski udum bo’yicha uni bshlash mas’uliyati kata yoshdagi oqsoqollar zimmasida bolgan. Bu jarayonda oqsoqolning uzoq umr ko’rganligi, dehqonchilik sohasidagi ko’p yillik tajribasi, serfarzandligi va oilaparvarligi, shuningdek oriq, kuchsiz emasligi inobatga olingan. Ushbu marosimni boshlagan kishi dastlab bir-ikki egat surgan, bir-ikki tuvak urug’ sepib, ishni ramziy tarzda yo’lga qo’yan. Bu jarayonda bo’g’irsoq pishirilgan va yeti avlod qatorida Bobodehqon ham yodga olingan[8].

O’simlik va mevalar xalq mifologik qarashlarida hosildorlik kultlari bilan bog’lanib ketadi. Odatda pishgan meva – balog’at belgisi sanaladi[9]. Xususan O’rta Osiyo xalqlari orasida tut mevasi nihoyatda e’zozlanib, qadrlanib, uni muqaddas ne’mat hisoblashgan. Tut daraxti o’sgan hovli fayzli, barakali va omadli sanalgan. Mevalar ichida birinchi pishadigan tut-to’qchilik ramzi, pishiqlik boshi hisoblanadi. Tut daraxti va mevasini qadrlashga bag’ishlangan eng katta tadbir – “Tut sayli” deb atalgan. “Tut sayli” hamma joyda o’tkaziladigan umumxalq bayrami emas. U asosan katta tutzorlar bor hududlarda o’tkaziladigan sayllardan biridir[10].

Tut pishganda kishilar tutzorlarga borishib, avval uning pishgan mevalaridan terib yeyishgan, so’ng soya-salqin joylarda turli musobaqalar, o’yin-kulgi va tomoshalar uyuştirib, tabiat qo’ynida dam olishgan.

“Bizlar yoshlik paytimizda tut pishishi va tut sayliga borishni intazorlik bilan kutardik. Chunki tut mevasini juda yaxshi ko’rardik va sayilda dugonalarimiz bilan maza qilib o’ynab, she’rlar aytishib, dam olib qaytardik”, - deya eslaydi axborotchilarimiz[11].

Bu sayilni o’tkazishning barcha joyda birday amal qilinadigan qat’iy an’analari mavjud emas. Kishilarning o’z bog’i, hovlisidagi tutni terib yeyishi oddiy odat bo’lsa, tevarak-atrofidagi tutzorlarga ommaviy chiqish esa - “Tut sayli”, ya’ni katta bayram hisoblanadi. Tut sayli o’tadigan joyda yosh bolalar tut saylini aks ettiradigan o’yinlarini boshlashgan, yosh yigit va qizlar oq chodirlar yozib, tut qoqishga kirishishgan (chodir – katta bo’z mato bo’lib, uni yigitlar tut tagida ushlab turishgan). O’spirinlarning biri tut ustiga chiqib, maxsus “tut to’qmog’i” bilan shohlarni urib, pishgan tutni chodir ustiga to’ka boshlagan. O’rta yoshdagagi kishilar tut mevasini quritish uchun maxsus chig’larni tayyorlashgan. Ayollar esa shinni pishirish uchun o’choqlar tayyorlashgan. Qariyalar esa dasturxon atrofida o’tirishgan.

Tut mevalarini qoqish, terish paytida o’yin-kulgu ham qilingan. Yigitlar dam olish bahonasida turli o’yinlar o’ynashgan. Shinni qaynayotgan vaqtida ayollar ham qo’shiq aytib, raqs tushishgan. O’rta yoshlilar va qariyalar tutga oid suhbatlar qilishgan. Davralarda tut bilan bog’liq afsona, rivoyatlar aytilgan.

Tut saylida albatta, tut mevasidan tayyorlangan shirinliklar yeyilgan. Shuningdek, qo’y, qo’zi yoki uloq so’yilib, go’shtidan qovurdoqlar pishirilgan. Ziyofatdan so’ng o’yin, tomosha, musobaqalar uyuşdırılmış. Oqsoqollarning aytishicha, qadimda tut sayli vaqtida “Bosh urishtirish”, “To’qmoq urush”, “Olishish” kabi musobaqalar o’tkazilgan. Xullas, tut sayli kishilarga moddiy va ma’naviy foyda keltirgan[12].

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUL

ANDIJON,2024

Xulosa. Bir so'z bilan shuni aytish mumkinki, etnografiya va tarixga oid manba va adabiyotlarda ham, aborotchilarning keltirgan ma'lumotlarida ham xotin-qizlar ham gul sayillarida bemalol, erkin qatnashgani ta'kidlanadi. Qabrlarni ziyorat qilish qadimdan gul sayillarining tarkibiy qismi bo'lib qolgan. Qizil gullarning paydo bo'lishi to'g'risida bu kabi tasavvurlar yerni, ona tabiat vujudga keltiradigan barcha narsalarni yanada sevish, ardoqlashga da'vat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Снесарев Г.П. Реликты до мусулманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – Москва: Наука, 1969. – С. 41.
2. Маткаримова С.М. Хоразм таомлари ва тановвул маданияти. – Бухоро, 2024. – Б. 167.
3. Снесарев Г.П. Хоразмликларнинг мусулмонликдан аввалги маросимлари ва урфодатлари. – Урганч, 2018. – Б. 201-202.
4. Наврӯз куни аргимчоқ учса, кишининг аграми (оғирлиги) тўкилади, баъзилар бир йиллик гуноҳлари тўкилади деб аргимчоқ учишни одат қилишган (Маткаримова С.М. Хоразм таомлари ва тановвул маданияти. – Бухоро, 2024. – Б. 163.).
5. Қиличев Т. Хоразм халқ театри. – Тошкент, 1988. – Б. 22-25.
6. Снесарев Г.П. Хоразмликларнинг мусулмонликдан аввалги маросимлари ва урфодатлари. – урганч, 2018. – Б. 75-76.
7. Фрезер Дж. Золотая ветвь: Исследование магии и религии. – М.: Изд-во политической литературы, 1983. – С. 12, 84, 131; Штернберг Л.Я. Первобытная религия в свете этнографии. – Л., 1936. – С. 466.
8. Снесарев Г.П. Хоразмликларнинг мусулмонликдан аввалги маросимлари ва урфодатлари. – Урганч, 2018. – Б.212-214.
9. Токарев С.А. Филимонова Г.Д. Обряды и обычаи, связанные с растительностью. Календарные обычай и обряды в странах Зарубежной Европы. – М., 1983. – С.145-180; Мусакулов А. Ўзбек халқ қўшиқларининг тарихий асослари. – Тошкент, 1994. – Б. 33-39.
10. Qoraboyev U. Madaniy tadbirlar. - Toshkent. 2003. – B.108.
11. Dala yozuvlari. Tamara Rahimova, 69 yosh. Bog'ot tumani, Humo ko'chasi, 74-uy, 2024 yil.
12. Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. – Toshkent, 2002. – B. 98-99.